

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YARATILGAN ILMIY MAKTABLAR XUSUSIDA

Usmonova Mohinur Ulug‘bek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

mohinurusmonova872@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ilmiy maktab tushunchasi, o‘zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy maktablar va ularning yo‘nalishlari xususida so‘z boradi. Shuningdek, maktab asoschilari, ularning faoliyati izohlangan bo‘lib, ilmiy maktab vazifalari va yutuqlari haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Asrning ijimoiy ehtiyoji sifatida maydonga kelgan O‘zbek amaliy tilshunosligi ilmiy maktabining shakllanishi, tarmoqlari yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ilmiy maktab, tilshunoslik, turkiy leksikografik maktab, o‘zbek formal tilshunosligi maktabi, o‘zbek substansial-pragmatik tilshunosligi ilmiy maktabi, o‘zbek amaliy tilshunosligi ilmiy maktabi.

Ilmiy maktab — ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun tashkil etilgan, o‘zida ilmiy g‘oyalar va usullarni rivojlantirishga qaratilgan tashkilot yoki guruh. Ilmiy maktablar, odatda, o‘zlarining metodologiyalari, ilmiy uslublari va usullariga asoslanadi, bu esa ularni boshqa ilmiy guruhlardan ajratib turadi. Ilmiy maktablar, odatda, zakovati, qiziqishlar doirasi hamda ish uslubi yangi-yangi iste‘dodlarni kashf qilish va jalb etishda katta ahamiyat kasb etadigan fan darg‘asi ta‘sirida tashkil topadi. Ilmiy maktab a‘zolari o‘zlarining ilmiy yondoshuvlarining samarasini ko‘rsatgan holda yangi ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni ishlab chiqishga hissa qo‘shishadi. Ilmiy maktablar, shuningdek, ta‘lim va tadqiqot sohalaridagi yangiliklarni tarqatish va ilm-fan rivojiga o‘zining hissasini qo‘shishga intilishadi. Ularda ilmiy qarashlar yaxlit va betakror bo‘lib, muayyan ilmiy g‘oya asosida shakllanadi.

Tilshunos olim B.Mengliyev ilmiy maktab tushunchasining 2 xil holatda qo‘llanishini aytadi:¹²³

1) umumiy qarash, g‘oya va qiziqishlar olimlarni birlashtiradi, uzviy hamkorlikka olib keladi. Bu yosh talantlarni jalb qilib, yangi fan sohalarining ko‘p yillik taraqqiyot darajasi va yo‘llarini belgilab beradi. Bunday maktab “baxtli vaziyat mahsuli” o‘laroq tashqi qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi;

1. Mengliyev B. Shakllanayotgan ilmiy maktablar: o‘zbek amaliy tilshunosligi/ Ma‘rifat, 4 / 10 / 2022.

2) ilmiy avlodlar almasha ham, saqlanib qoladigan va rivojlanib boradigan aniq mavzu, umumiy qarash, qiziqish va an‘analari sistemasi asosida tashkiliy ravishda birlashtirilgan ilmiy jamoa. Ilmiy maktab ilmiy qiziqishlar uyg‘unligi va tadqiqotlar mohiyatining umumiylik, asllik va betakrorlik, ilmiy natijalarning yuqori darajasi va maktabning ijtimoiy tan olinishi, yetakchining rolini va maktabning istiqbollarini ta‘minlaydigan vorisiylik belgilariga ega.

Aytib o‘tish joizki, ilmiy maktablar dastlab mustaqil markazlar maqomida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik ma‘lum tushuncha yoki g‘oya asosida birlashgan norasmiy olimlar jamoasi ko‘rinishini oldi. Masalan, qadimgi Yunonistonda shakllangan Iskandariya grammatika maktabi (vakillari: Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar), arab tilshunosligida Basra va Kufa grammatika maktablari (vakillari: Xalil al-Farohidiy, Amir bin Usmon Sibavayxiy, Abu-Abayda, Sag‘ani, ibn Mansur, Feruzobodiy) ilmiy maktabning yorqin ko‘rinishi edi.

O‘zbek tilshunosligida shakllangan ilk ilmiy maktab sifatida XI asrda yashab o‘tgan qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan asos solingan turkiy leksikografik maktabni ko‘rsatish mumkin. Ushbu maktab turkiy tilning umumturkiy tildan ajralib, alohida yaxlitlik maqomiga ko‘tarilganligini, boshqa turkiy tillardan farqli xususiyatlarini asoslash, kelgusida milliy til sifatida e‘tirof etiladigan bu tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, fonetik, leksik-grammatik qurilishini tavsiflash masalalari bilan shug‘ullandi. Mahmud Qoshg‘ariy qoraxoniylar davlati xalqini turk (turklar) atamasi bilan qayd qildi, ularni va ularning tilini, avvalo, shu mintaqada yashayotgan o‘g‘uz, turkman va uyg‘ur qavmlari hamda ularning tilidan farqladi. Davr talabi va tarixiy zaruratni anglab, qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmani mukammal darajada ado etdi. Bu zaruriyat asosida shakllangan lug‘atchilik an‘anasi ming yillar mobaynida saqlanib qoldi. Adabiy manbalarni tahlil qilish – so‘z ma‘nolariga, ularning qo‘llanishiga e‘tibor berish, izohlash, lisoniy, ma‘rifiy qiymatini ochish, asarlarning tarjimai kabi masalalar bilan shug‘ullanish keyingi davr leksikografiyasining maqsad va vazifasi bo‘ldi. Bunda Eron shohi Nodirshohning kotibi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodi al-Husayniy as-Safaviy (Mirzo Mehdixon)ning “Sangloh” (1760), Jamoliddin Muhammad Abdulloh Turkiyning taxminan XIV asrda yozilgan “Kitobu-l-lug‘at al-mushtoq fi lug‘ati-t-turk va-l-qafchoq” (“Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qiziqtiruvchi kitob”), o‘rta asr tilshunos-turkiyshunoslaridan bo‘lgan Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusi (1256–1345)ning “Kitobu-l-idrok li-l-lisonil atrok”, undan foydalanilib XIV–XV asrlarda yozilgan va muallifi noma‘lum “Attuhfatu-z-zakiyatu fi-l-lug‘ati-t-turkiya” asarlari ham ana shunday an‘ana mahsulidir.

O‘zbek formal tilshunosligi maktabi. O‘zbek tilshunosligi fan sifatida XX asrning 20–30-yillarida shakllana boshladi va shu asrning oxirlariga kelib o‘zining yuqori cho‘qqisiga erishdi. O‘z oldiga davr talablaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarni qo‘ygan o‘zbek tilshunosligi 50-60 yil mobaynida o‘zbek adabiy tili me‘yorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ulkan zarurat asosida ish ko‘rdi. XX asr o‘zbek tilshunosligining shakllanishida Abdurauf Fitrat, Y.D. Polivanov, G‘ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Faxri Kamolov, Ulug‘ Tursunov, Ayub G‘ulomov va ular izdoshlarining xizmati katta.

Fonetika sohasida A. G‘ulomov (O‘zbek tilida urg‘u –1947), V.V.Reshetov (O‘zbek tili. I qism. Kirish. Fonetika–1959), Sh.Shoabdurahmonov (Fonetika. O‘zbek tili fonologiyasiga doir ba’zi masalalar–1953), A.M.Shcherbak (Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi–1970); *leksikologiya sohasida* F.Kamol (O‘zbek tili leksikasi–1957), Y.Pinxasov (Hozirgi o‘zbek tili leksikasi–1957, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”(leksikologiya va frazeologiya) –1969), M.Mirtojiyev (O‘zbek tilida polisemiya); *frazeologiya sohasida* Sh. Rahmatullayev (Frazeologik birikmalarning asosiy ma’no turlari–1955, Hozirgi zamon o‘zbek tili (frazeologiya qismi) –1957), Y. D. Pinxasov (Hozirgi o‘zbek adabiy tili (leksikologiya va frazeologiya) –1969); *so‘z yasalishi sohasida* A.G‘ulomov (O‘zbek tilida so‘z yasash yo‘llari haqida–1949), A. Hojiyev (Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi–1979, O‘zbek tilida so‘z yasalishi–1987); *morfologiya sohasida* A.G‘ulomov (O‘zbek tilida kelishiklar–1941, O‘zbek tili morfologiyasiga kirish–1953, Fe‘l–1954), Sh.Shoabdurahmonov (O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar–1953), A.N.Kononov (Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi –1960), M.Asqarova (O‘zbek tilida ravishdosh va sifatdosh –1953); *sintaksis sohasida* A.G‘ulomov (O‘zbek tilida aniqlovchilar–1942, O‘zbek tilida so‘z tartibi–1947, Sodda gap–1948-1955, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Sintaksis (M.Asqarova bilan) –1963), G‘.Abdurahmonov (Gapning ajratilgan ikkinchi darjali bo‘laklari–1956, Qo‘shma gap–1957, Qo‘shma gap sintaksisi asoslari–1958, Qo‘shma gap sintaksisi–1964), M.Asqarova (Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gap –1960, O‘zbek tilida ergashish formalari va ergashgan gaplar –1966); *dialektologiya sohasida* G‘ozi Olim Yunusov (O‘zbek urug‘larida qatag‘onlar va ularning tili –1930, O‘zbek lahjalari tasnifidan bir tajriba–1936), K.K.Yudaxin (Qorabuloq shevasining ayrim xususiyatlari–1927, Chig‘atoy tilining fonetik tarkibi–1929), V.V.Reshetov (O‘zbek tilining Marg‘ilon shevasi–1941, O‘zbek tilining Namangan shevasi –1953, Toshkent viloyati qurama shevalari. Fonetik va morfologik sistema–1952), shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi rivojida U.Tursunov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Mirzayevlarning hissalar beqiyos.

Ta’kidlab o‘tish joizki, o‘zbek an’anaviy (formal) tilshunosligi vakillari o‘zbek tili qurilishini tavsiflash umumiy vazifasi ostida birlashishdi. Bu davrda o‘zbek tilining ichki qurilishi zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida o‘rganildi va o‘zbek tilshunosligi jahon zamonaviy tilshunosligi o‘laroq shakllandi. Tilshunoslikning bugungi mavjud barcha bo‘limlari bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishi vujudga kelib, ular asosida imlo va talaffuz qoidalari yaratilib, o‘rta, o‘rta maxsus va oliy maktab uchun bu tildan me’yoriy darslik, qo‘llanma va ilmiy grammatikalar yaratildi. Natijada ta’lim, matbuot, radio, televideniye, rasmiy ish yuritish, kitobchilik ishlarida o‘zbek adabiy tilining ustuvorligiga erishildi. Adabiy til me’yorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ijtimoiy buyurtmani olgan o‘zbek an’anaviy tilshunosligi o‘zbek adabiy tilining imlo qoidalari, imlo lug‘ati, talaffuz me’yorlari, o‘zbek adabiy tilining akademik grammatikalari, shuningdek, o‘zbek tilining 2 tomli izohli lug‘ati nashr etilishi bilan o‘tgan asrning 80-yillarida o‘z faoliyatiga yakun yasadi. Bu holat yetakchi o‘zbek tilshunoslari tomonidan e’tirof etildi.

"O‘zbek substansial-pragmatik tilshunosligi" ilmiy maktabi. Hozirgi o‘zbek substansial tilshunosligining rivojlanishi Buxoroda bir necha yil ishlagan leningradlik turkolog professor Sergey Ivanov (1922-1999) nomi bilan bog‘liqdir. O‘zbek fanida bu yo‘nalishdagi ilk tadqiqot S.Ivanovning 1959-yilda Leningradda Leningrad universiteti nashriyoti e‘lon qilgan 158 betli “Очерки по синтаксису узбекского языка (форма на -ган и ее производные)” asaridir. Keyingi yillarda olim bu ishida boshlagan tadqiqotlarini o‘zining bir qator maqolalarida chuqurlashtirdi va doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi. O‘zbek substansial-pragmatik tilshunosligining keyingi taraqqiyoti va hozirgi kunda O‘zbekistonda ommalashishi S.Ivanovning shogirdi 1961-77-yillarda Leningard tilshunosligi ta‘limini ko‘rgan buxorolik olim Hamid Ne‘matov va u yaratgan lingvistik maktab bilan bog‘liq. Mazkur ilmiy maktab o‘zbek tilining substansial va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga ixtisoslashgan. Maktab asosiy e‘tiborni tilning semantik va pragmatik funksiyalarini ochib berishga, lingvistik birliklarning matnga bog‘liq o‘zgaruvchanligini tadqiq qilishga qaratadi. Shuningdek, bu maktab pragmatik asosda muloqot jarayonlarini va nutq strategiyalarini modellashtirishni ilgari suradi. Substansial tadqiq yo‘nalishida Hamid Ne‘matovning rahnamoligida M.Abuzalova, D.Abdullaeva, Sh.Akramov, T.Asadov, B.Badriddinova, Ye.Begmatov, Sh.Bobojonov, R.Bobokalonov, O.Bozorov, I.Madrahimov, B.Mengliev, M.Narzиеva, S.Nazarova, G.Ne‘matova, L.Ne‘matova, A.Nurmonov, D.Nurmonova, Sh.Orifjonova, R.Rasulov, R.Sayfullaeva, R.Safarova, H.Saidova, L.Raupova, B.Qilichev, S.G‘iyosov, Sh.Shahobiddinova, N.Shirinova, O.Shukurov, M.Qurbonova, Z.Yunusova, N.Yo‘ldosheva, N.Vohidova, G.Toirova kabi tadqiqotchilarning nomzodlik va doktorlik ishlari yakunlandi. Til va nutqni farqlash, ilmiy izlanish va tadqiqotlarda dialektik falsafaga, uning qonun va kategoriyalariga asoslanish g‘oyalari yetakchilik qilgan o‘zbek substansial-pragmatik tilshunosligi “imkoniyatlar tilshunosligi” nomini oldi. Bu tilshunoslik o‘zbek tilining lisoniy va nutqiy strukturalarini farqlash, lisoniy struktura va lisoniy birliklarni, ularning imkoniyatlarini aniqlash borasida izchil tadqiqotlar olib borib, tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik lisoniy strukturalarini va birliklarini dialektik tadqiq metodologiyasi asosida tekshirdi.

"O‘zbek amaliy tilshunosligi" ilmiy maktabi. Amaliy tilshunoslik – bu fanining nazariy asoslarini real hayotda, kommunikativ sohalarda qo‘llashni ta‘minlashga qaratilgan ilmiy yo‘nalishdir. Bundan tashqari, u til bilan bog‘liq muammolarni aniqlaydigan, tekshiradigan va yechimlarni taklif qiladigan tadqiqot sohasidir. O‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalish XX asrning 90-yillaridan boshlab rivojlanib, tilshunoslikni faqat nazariy ilm sifatida emas, balki turli ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan amaliy vosita sifatida baholaydi. Amaliy tilshunoslik lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tekshirishga, undan amalda foydalanishning samaradorligini oshirish, ishlatilish doirasini kengaytirish muammolariga jiddiy e‘tibor qaratadi. Bu esa o‘zbek amaliy tilshunosligining substansial-pragmatik tilshunosligi, korpus lingvistikasi, lingvoma‘naviyatshunoslik, lingvistik ekspertologiya, psixolingvistika, lingvokognitologiya, korpus lingvistikasi, komputer lingvistikasi kabi

zamonaviy fan yo‘nalishlarining yaxlit ilmiy maktab sifatida shakllanishiga olib keldi. Zabardast tilshunos Baxtiyor Mengliyev ana shu yo‘nalishlarni o‘zida birlashtirgan va o‘zbek tilining amaliy va funksional imkoniyatlarini tadqiq qilishni o‘ziga maqsad deb belgilagan. O‘zbek amaliy tilshunosligi ilmiy maktabiga asos soldi. Har bir davrning o‘z psixologik, falsafiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari mavjud bo‘lib, ular fan tarmoqlari oldiga turli muammolar va ularning yechimi masalasini qo‘yadi. XXI asr o‘zbek tilshunosligi uchun ham ana shunday “ijtimoiy buyurtma”, ya’ni amaliy filologik tadqiqotlarga zarurat paydo bo‘ldi. Amaliy tilshunoslik zarurati, bir tomondan, tilning ilmiy jihatlarini tahlil qilishni, ikkinchi tomondan esa, bu bilimlarni real hayotdagi turli vazifalar va muammolarni hal qilishda qo‘llashni taqozo qiladi. Bugungi kunda jamiyatda tilshunoslarning amaliy bilimlarga ega bo‘lishi muhimdir, chunki til faqat aloqa vositasi bo‘lib qolmasdan, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va ijtimoiy masalalarni hal qilishga yordam beruvchi kuchga aylangan. Davrning tilshunoslikka nisbatan ijtimoiy buyurtmasini to‘g‘ri anglagan va ushbu buyurtmani bajarishga kirishgan B.Mengliyev va uning shogirdlari tomonidan korpus lingvistikasi, amaliy leksikografiya, lingvistik ekspertiza, substansial-pragmatik yo‘nalish, lingvoma‘naviyatshunoslik sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar tilshunosligimiz bilan bog‘liq muammolarning yechimiga qaratilganligi, o‘zbek tilining dunyo tilshunosligidagi nufuzi va maqomini yuksaltirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Bu ilmiy maktab O‘zbekiston tilshunoslik maktablarining amaliy yo‘nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Unda tilni o‘rgatish, tarjima nazariyasi va amaliyoti, lingvistik ekspertiza va til testologiyasi kabi yo‘nalishlar o‘rganiladi. Maktab til resurslarini tahlil qilish, texnologik vositalar yordamida amaliy yechimlar ishlab chiqish va lingvistik xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Uning asosiy maqsadi, zamonaviy lingvistik yondashuvlardan foydalangan holda, milliy va xalqaro darajada amaliy tilshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirishdir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, yuqorida nomlari sanalgan tilshunoslik maktablarining barchasi o‘z davrining psixologik, ijtimoiy, siyosiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllandi, har biri o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy buyurtmasi o‘laroq maydonga keldi. O‘zbek tilshunosligida shakllangan tilshunoslik maktablarining barchasi o‘z davrining tilshunoslikka oid muammolariga yechim berishga harakat qildi. O‘zbek substansial-pragmatik tilshunosligi maktabi g‘oyalarining davomchisi sifatida maydonga kelgan O‘zbek amaliy tilshunosligi ilmiy maktabi o‘zbek tilshunosligining jahon tilshunosligi tizimida tutgan o‘rni va mavqeyini mustahkamlashni, til faqat tilshunosniki emas, xalqniki ekanini, uning yutuqlari xalq uchun xizmat qilishi lozimligini ko‘rsatib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mengliyev B. Shakllanayotgan ilmiy maktablar: o‘zbek amaliy tilshunosligi/ Ma’rifat, 4 / 10 / 2022.

2. Mengliyev B. Jamiyat amaliy filologik tadqiqotlarga nechog‘lik muhtoj?/ Kun.uz, 22.08.2019.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2017. – 306 b.
4. Ulugbekovna, U. M. (2024). Some Comments on the Principle of" Speech Realization of Linguistic Possibilities" and its Importance in Applied Linguistic Research. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 181-185.
5. Usmonova, M. (2024). MATNLARGA DASTLABKI ISHLOV BERISH VA SEMANTIK TAHLIL QILISHGA OID AYRIM MULOHAZALAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 3(1), 44-48.